

SUG'URTA MAHSULOTI ISTE'MOLCHILARINING MANFAATLARINI HIMOYA QILISH TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Olmosova Munisa Sherxon qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

Global miqyosda, jumladan, O'zbekistonda sug'urta faoliyati tabiiy va stixiyali kuchlar ta'sirida baxtsiz hodisalar sodir bo'lishi oqibatida yetkazilgan zararlarni qoplash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini yaxshilashning muhim omili hisoblanadi. Lekin, turli davrlarda yuz berib turadigan moliyaviy hamda iqtisodiy inqirozlar va sug'urta kompaniyalari boshqaruvining noto'g'ri siyosati sababli sug'urta kompaniyalari og'ir moliyaviy ahvolga tushib qolishlari mumkin. Bu o'z navbatida, sug'urta kompaniyalari o'z mijozlarining manfaatlarini ishonchli, shuningdek samarali himoyalash tizimini yaratishni taqozo etadi. Hozirda dunyoda sug'urta mahsuloti iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish tizimi turlicha shakllantirilgan. Aksariyat mamlakatlarda sug'urta iste'molchilarini himoya qilish vazifasi sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha vakolatli davlat organlari zimmasiga yuklatilgan. Jumladan, IAIS tomonidan tasdiqlangan "Sug'urtaning asosiy prinsiplari"da nazorat qiluvchi organlar sug'urtalovchi va sug'urta vositachilaridan sug'urta faoliyatini yuritishda sug'urta shartnomasi tuzilgan vaqtdan ushbu shartnomada ko'rsatilgan barcha majburiyatlar bajarilgunga qadar iste'molchilarga adolatli munosabatda bo'lishni talab qiladi, deb qayd etilgan [1]. Sug'urta mahsuloti iste'molchilarining manfaatlarini va qonuniy huquqlarini himoya qilish masalasiga dunyo bo'ylab hamda mintaqalararo e'tibor qaratilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, yirik va tizimli ahamiyatga ega sug'urta kompaniyalarining iqtisodiy nochor holatga tushib qolishi oqibatida zimmasiga olgan majburiyatini bajarmasligi ko'p sonli sug'urta iste'molchilarining, nafaqat sug'urta kompaniyasiga, balki hukumatga qarshi ommaviy noroziligini keltirib chiqaradi.

Sug'urta mahsuloti iste'molchilari o'z huquqlari buzilgan taqdirda, masalan, sug'urta hodisasi natijasida yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta kompaniyasi to'lovni amalga oshirishdan bosh tortgan holatlarda sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi vakolatli davlat organiga murojaat qilishlari mumkin. Ushbu qarashga qo'shilgan holda, Daniel Schwarcz sug'urta kompaniyalarining sug'urta qoplamalarini to'lashdan asossiz bosh torishi bo'yicha iste'molchilarning shikoyatlari to'g'risidagi axborot tartibga soluvchi organlar uchun yagona va yetarlicha axborot manbai bo'lib xizmat qiladi, deydi [2]. Uning fikricha, NAIC kabi AQSHning ko'pchilik shtatlari sug'urta komissariatlari sug'urta mahsuloti iste'molchilarining shikoyatlari to'g'risidagi ma'lumotni o'z veb-saytlarida joylashtiradilar, ammo sug'urta mahsuloti iste'molchilariga ushbu ma'lumotni to'g'ridan-to'g'ri oshkor etish sug'urtalovchilar uchun majburiy emas. Sug'urta iste'molchilarini himoyalash tizimini tadqiq etish natijalariga asoslanib, Peter Pfund xulosasiga ko'ra sug'urta nazorati organi uchun asosiy ustuvor vazifa

sug'urtalanuvchilarni sug'urta tariflarini sun'iy oshirilishidan yoki sug'urta qildirgan kompaniyasini to'lovga qobiliyatsiz bo'lib qolish xavfidan himoyalash hisoblanadi [3]. Bu masala bo'yicha Peter Pfundning qarashlari Yevropada yagona emas. Aksincha, Yevropa sug'urta nazorati organi texnik zaxiralarni to'g'ri shakllantirish va aktivlarni ehtiyotkorlik bilan baholash sug'urtalovchi to'lov qobiliyatini nazorat qilish uchun asos bo'lishi haqidagi fikrga qo'shiladi. Lucie Lechardoy, Adriana Rodriguez Diaz va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, Buyuk Britaniyada hayot sug'urtasidan tashqari, boshqa sug'urta iste'molchilarini himoyalash FCA tomonidan amalga oshiriladi [4]. Ushbu tashkilot mustaqil davlat organi hisoblanadi va to'liq o'z nazoratidagi kompaniyalar to'laydigan yig'imlar hisobidan moliyalashtiriladi. Uning asosiy vazifalariga moliya, shuningdek sug'urta sohasidagi xalqaro va Yevropa standarti va qoidalarini Buyuk Britaniya amaliyotda tatbiq etish hisoblanadi. Shuningdek, Buyuk Britaniyada sug'urta iste'molchilarini himoya qilish vazifasi Angliya banki tarkibiga kiruvchi PRAGA yuklatilgan.

Germaniyada ham sug'urta iste'molchilarini himoya qilish o'ziga xos xususiyatga ega. Ushbu mamlakatda sug'urta iste'molchilarini himoya qilish BaFin vakolatiga kiradi. BaFin faoliyati federal budget hisobidan moliyalashtirilmaydi, balki o'z nazorati doirasiga kiradigan moliya institutlarining ajratmalari hisobidan xarajatlarni qoplaydi [5]. BaFin moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida Germaniya hududida faoliyat yuritadigan har xil moliya muassasalarining, jumladan sug'urta kompaniyalarining faoliyatini nazorat qiladi. Nazorat jarayonlari natijasida aniqlangan kamchiliklarga tayangan holda iste'molchilarga bir qancha maslahatlar beradi. Shuningdek, BaFin o'zining rasmiy veb-sayti orqali iste'molchilarga turli xil sug'urta mahsulotlarining asoslarini tushuntiradi hamda sug'urta shartnomalarini tuzish va bekor qilish, sug'urta da'volari yuzaga kelganda qanday chora - tadbirlarni amalga oshirish zarurligi to'g'risida doimiy tarzda ma'lumotlar taqdim etib boradi.

Sug'urta mahsuloti iste'molchilarining manfaatlarini himoyalash borasida mavjud muammolar quyidagilar:

- □ sug'urta shartnomalarida ma'lumotlarning asimmetrik ko'rinishda ekanligi. Ya'ni sug'urta shartnomalarida sug'urta mahsuloti iste'molchilarning manfaatlari yetarli darajada e'tiborga olinmagan. Sug'urta shartnomasida aks etgan shartlar murakkab va ularning mazmuni iste'molchilar tomonidan to'liq anglab olinmaydi;
- □ sug'urta mahsulotlarining narxlari shaffof emas, aytim holatlarda, sug'urta tariflari asossiz oshirilmoqda, sug'urta hodisalari sodir bo'lishi natijasida ko'rilgan zararlarni qoplashda sug'urta tashkilotlari tomonidan byurokratik to'siqlar va zararlarni asossiz to'lamaslik holatlari kuzatilmoqda. Sug'urta mahsuloti iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish bo'yicha bazaviy standartlar ishlab chiqilmagan.

Sug'urta mahsuloti iste'molchilarining manfaatlarini himoyalash maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

➤ □ iste'molchilar tomonidan kelib tushgan murojaatlarning tahliliga bag'ishlangan mavzuli teleko'rsatuvlar tashkil etish va ommaviy axborot vositalarida chiqishlar amalga oshirish. Sug'urta shartnomalarida sug'urta mahsuloti iste'molchilarining manfaatlari qanchalik inobatga olinganligini tahlil qilish maqsadida sug'urta shartnomalarini ekspertlar tomonidan mustaqil, xolisona va adolatli ekspertizasini tashkil etish;

➤ □ sug'urta shartnomasi shartlarini soddalashtirish, ularni sug'urta mahsuloti iste'molchilari uchun tushunarli va aniq bayon etish, sug'urta mahsulotlari narxlarining ilmiy asoslash, sug'urta tariflarini adolatli, sug'urtalanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning to'lovga qodirligini hisobga olgan holda belgilash;

➤ □ sug'urta hodisalari sodir bo'lishi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashda sug'urtlangan shaxsdan talab etiladigan hujjatlar sonini keskin kamaytirish va qisqa muddatda zararlarni qoplash, sug'urta iste'molchilarining manfaatlari kerakli darajada himoyalaniishini ta'minlash maqsadida ularning manfaatlari himoya qilish bo'yicha bazaviy standartlar ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi natijasida sug'urtalanuvchilarning manfaatlari himoyalash tizimi kuchayadi, sug'urtaning aholi orasiga kirib borishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi, sug'urtalovchilar tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta to'lovlari hajmi keskin oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Insurance Core Principles. Updated November 2018. International Association Insurance Supervisors (IAIS). https://www.iaisweb.org/page/supervisory_material/insurance-coreprinciples/file/77910/all-adopted-icps-updated-november 2018.
2. Daniel Schwarcz. Transparently Opaque: Understanding the Lack of Transparency in Insurance Consumer Protection. Scholarship Repository University of Minnesota Law School 61 UCLA L. REV. 394 (2014). P.416. https://scholarship.law.umn.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1582&context=faculty_articles.
3. Pfund P. Consumer Protection and Insurance Supervision. The Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice. 18, 432-438 (1993). <https://doi.org/10.1057/gpp.199.34>. <https://link.springer.com/content/pdf/10.1057/gpp.1993.34.pdf>.
4. Lucie Lechardoy, Adriana Rodriguez Diaz and other. Study on consumers' decision making in insurance services: a behavioral economics perspective – Final report – Country fiches, Written by London Economics, Ipsos and VVA Europe May 2017. P.329. https://ec.europa.eu/info/files/behavioural-study-insurance-services-final-reprt_en.
5. BaFin and consumer protection (2020). https://www.bafin.de/EN/Verbraucher/BaFinVerbraucherschutz/bafin_node_en.html.